



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR.....	12
Muxiddin Kalonov	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA.....	34
Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
KARBOHOVYIE KREDITI V AGRAPNOM SEKTOPE KAK INSTRUMENT RAZVITIYA ZEL'ENOH EKONOMIKI UZBEKISTANA.....	61
Abdullaeva Zaynab Ruslanovna	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI.....	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI.....	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY.....	100
Erkin Temirovich Shodiev	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT.....	105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIVALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	



АХОЛИ ИСТЕ’МОЛ МАДАНИЯТИ ВА МИЛЛИЙ IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI	118
Rustamov Sheroz Oblokulovich	
ISHLAB CHIQRISH OMILLARINING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI: KOBБ–DOUGLAS MODELII ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL	123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQARISH	129
Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА	150
Омонтурдиева Диёра	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
Matkarimov Mansur	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEKANIZMINING DASTAKLARI	161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KAMBAG’ALLIKNI MONETAR VA KO’P O’LCHOVLI VAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O’SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH	173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o’g’li	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI.....	179
Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o’g’li	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	192
Ashurova Sitora Xusnitdin qizi	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	197
Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов	
JAHON ME’MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
Qilichov Muhridin Husniddin o’g’li	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS.....	217
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
Rajabova Malika Nuriddin qizi	
NATIJAGA YO’NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR	230
Qosimova Gulyar Axmatovna	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	239
Усманова Зумрад Исламовна	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	242
Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI.....	248
Xannarov Komiljon Karimovich	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOYILLARI.....	253
Saidov Suhrob Shodmonovich	
HUDUDIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
Akbarova Kamola Akmaljonovna	
MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI	263
Karimov Eminjon Gopardjonovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	270
Shermatov Axror Abdixakimovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ENERGIYA SAQLASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	275
Ergash Bobobekov	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	281
Yo'ldoshev Jamshid Nu'monovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	285
Qurbonova Rahima Jamshedovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	290
Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	297
Raximov Zikrullo Soyibjon o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA REKREATSION XIZMATLAR MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	302
Usmanova Zumrad Islamovna	
WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATIONAL SERVICES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS	306
Iskhakova Sarvar Ayubovna, Amriyeva Shahzoda Shukhratovna	
BARQAROR TURIZMGA ERISHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	312
Baxtiyorov Javlon Fazliddin o'g'li	
MEVA MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TIZIMI.....	316
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	



AHOLISI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA QISHLOQ JOYLARINING BARQAROR RIVOJLANISHI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR.....	325
Yusufjonov Jahongir Ilxomjon o'g'li	
СТРАТЕГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ В ФИЛОСОФИИ СТОИЦИЗМА И СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ СТРАТЕГИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ МАРКА АВРЕЛИЯ И КОНЦЕПЦИИ СТРАТЕГИРОВАНИЯ ВЛАДИМИРА Л. КВИНТА.....	329
Норкулов Суннатбек Алишерович	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	335
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QULAY BIZNES MUHITINING TA'SIRI.....	341
Vahidova Gulhayyo Arzi qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BANK KREDITLARI BILAN TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	347
Raxmanova Ilmira Rustamovna	
SAVDO KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MAQSADLI MARKETINGDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	354
Toxirov Javlon Raximovich	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI TARKIBIY QISMLARI BO'YICHA BAHOLASHNING MUHIM OMILLARI.....	361
Arslonov U. U.	
RESURLAR TA'MINOTI TIZIMINING TASHKILY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI.....	367
Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi	
JAHON SAVDO TASHKILOTI TAMOYILLARI ASOSIDA SOLIQ SIYOSATINI MUVOFIQLASHTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	373
Saitqulov Suxrob Shavkatovich	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARNING KREDIT QOBILIYATINI BAHOLASH UCHUN SKORING MODELIDA SUN'YI INTELLEKTNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI.....	380
Komiljon Karimov	
OLIY TA'LIM VA AMALIYOT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI ASOSIDA KADRLAR TAYYORLASH MENEJMENTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI.....	386
Karimova Xurshida Raximovna	
QO'RIQLASH DEPARTAMENTIDA SOLIQ YUKLAMASINING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI VA UNI ICHKI MOLIYAVIY NAZORAT HAMDA AUDIT NUQTAYI NAZARDAN TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	390
Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	396
Ли Марина Рудольфовна	
O'ZBEKISTONDA YER RESURLARINING AGRAR IQTISODIYOTGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	402
Xoshimova Sevara Baxromovna	
FARMATSEVIKA IMPORT KOMPANIYALARIDA REKLAMA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH: "SHINING IMPEX" AJ MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT.....	410
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna, Nurullayev Ilyosbek Xojiabdulla o'g'li	
HUDUDIY IQTISODIY O'SISHNI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	417
Turayev Baxtiyor Ergashevich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	421
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA DAVLAT SUBSIDIYALARINING MOLIYAVIY NATIJALARGA TA'SIR KANALLARI VA ULARNI HISOBDA AKS ETTIRISH MASALALARI	427
Davronbek Matyakubovich Matkarimov, Qadamov Mirzobek Ulug'bek o'g'li	
O'ZGARUVCHILAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNI REGRESSIYA MODELLARI ORQALI AMALIY TAHLILI	432
Sakiyeva Ozoda Batirovna, Xushvaqtova Dilfuza Ramazon qizi	
INSON KAPITALIGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	437
Zayniddinov Aloviddin Zayniddin o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KRIPTO-AKTIVLAR AYLANMASINI RIVOJLANTIRISH HAMDA BOZOR MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	444
Khakimov Bekzod Ilhomjonovich	
O'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TA'LIMI MUASSASALARINI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	453
Atabayeva Yulduz Baxtiyar qizi	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ В УЗБЕКИСТАНЕ	457
Ким Елена Радионовна	
O'ZBEKISTONDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI BOSHQARUV SAMARADORLIGI: HOLAT, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	464
Abdurasulova Zarina Sayfiddin qizi	
STRATEGIC MARKETING CAPABILITIES AND ENTERPRISE COMPETITIVENESS IN DIGITAL PLATFORM ECOSYSTEMS: A CONCEPTUAL SMPC MODEL FOR EMERGING MARKETS	471
Bakhtiyor Ruziev Eshmuminovich	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	477
Усманова Зумрад Исламовна	
UGLEROD CHIQINDILARINI KAMAÝTIRISHDA YASHIL INVESTITSİYALAR AHAMIYATINING NAZARIY ASOSLARI.....	480
Jumaniyozov Feruzbek Dilshod o'g'li, Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich, Majidov Jamoladdin Komoliddinovich	
MEHMONXONA XO'JALIGI SUBEKTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	485
Gulomqodirova Ma'muraxon Saydumarxon qizi	
QISHLOQ MANZILGOHLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI VA NAZARIY JIHATLARI	492
Xusanova Sevara Shavkat qizi	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION-INVESTITSION BOSHQARUV METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	499
Raxmatillo Mirolimovich Egamov	
MOLIYAVIY HISOBOTNING KOMPILYATSIYASI BO'YICHA TOPSHIRIQLARNI BAJARISH TARTIBI.....	503
A.Z.Avlokulov	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MOHIYATI, TASNIFLASH MEZONLARI VA SHAKLLARI	507
Ibragimov Aziz Turayevich	
IJTIMOY OMILLAR ASOSIDA BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI.....	514
Isroilov Xurshidbek Rustambek o'g'li	
AVTOTRANSPORT XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI KORXONALAR FAOLIYATI HAMDA ULARDA SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	521
Raximov Azamat Hamroqulovich	



KO'P QAVATLI UY-JOY OBYEKTЛАRI LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	525
Xikmatov Xakimxon Xamzaevich, Xalilov Nimatillo, Fattoyev Orzujon Xudoyqul o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	530
Djumaniyazova Shaxnoza G'afurdjanovna	



TIJORAT BANKLARINING TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Djumaniyazova Shaxnoza G'afurdjanovna

Urganch Ranch universiteti, Iqtisodiyot kafedrası magistranti

E-mail: jumaniyazovashahnoza80@gmail.com

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining nazariy-metodologik asoslari tizimlashtirilgan hamda "O'zsanoatqurilishbank" ATB faoliyati misolida kreditlash ko'rsatkichlarining 2021–2025-yillardagi dinamikasi empirik tahlil qilingan. Kreditlash tizimida mavjud tizimli muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan to'rtta strategik yo'nalish, jumladan, yashil moliyalashtirishni rivojlantirish, kafillik mexanizmlarini takomillashtirish, "Green SME Loan" kredit mahsulotini joriy etish hamda Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimini (EIRBT) amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, tadbirkorlik subyektlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kreditlash mexanizmlari, yashil moliyalashtirish, Green SME Loan, kafillik mexanizmi, xalqaro moliya institutlari, ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi (EIRBT).

Abstract. The theoretical and methodological foundations of financial support mechanisms provided by commercial banks to business entities in the Republic of Uzbekistan are systematized, and the dynamics of lending indicators of JSCB "Uzsanoatqurilishbank" during 2021–2025 are empirically analyzed. Existing systemic problems in the lending system are identified, and four strategic directions for improvement are substantiated, including the development of green financing, enhancement of guarantee mechanisms, introduction of the "Green SME Loan" credit product, and implementation of the Environmental and Social Risk Management System (ESRMS).

Key words: commercial banks, business entities, financial support, lending mechanisms, green financing, Green SME Loan, guarantee mechanism, international financial institutions, Environmental and Social Risk Management System (ESRMS).

Аннотация. Систематизированы теоретико-методологические основы механизмов финансовой поддержки субъектов предпринимательства коммерческими банками Республики Узбекистан, а также проведён эмпирический анализ динамики показателей кредитования АКБ «Узсаноатқурилишбанк» за 2021–2025 годы. Выявлены системные проблемы в сфере кредитования и обоснованы четыре стратегических направления их совершенствования: развитие зелёного финансирования, совершенствование гарантийных механизмов, внедрение кредитного продукта «Green SME Loan» и применение Системы управления экологическими и социальными рисками (ESRMS).

Ключевые слова: коммерческие банки, субъекты предпринимательства, финансовая поддержка, механизмы кредитования, зелёное финансирование, Green SME Loan, гарантийный механизм, международные финансовые институты, Система управления экологическими и социальными рисками (ESRMS).



KIRISH

Jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar, moliyaviy globallashtirish jarayonlari va geosiyosiy nomutanosibliklar fonida tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash barqaror iqtisodiy o'sishning strategik omillaridan biriga aylandi. Xalqaro Valyuta Fondining 2025-yildagi prognozlariga ko'ra, jahon iqtisodiyotining o'sish sur'ati kelgusi ikki yil ichida 3,0–3,2 foiz chegarasida qolishi kutilmoqda.¹ Bunday sharoitda bank-kredit tizimining tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi strategik roli yanada ortib bormoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YalM hajmidagi ulushi 2021-yildagi 54,9 foizdan 2024-yilda 59,1 foizga ko'tarildi, tijorat banklarining kredit qo'yilmalari esa xuddi shu davrda 190,8 trln so'mdan 361,2 trln so'mga, ya'ni 1,9 martaga oshdi.² Biroq garov ta'minotining yetishmasligi, foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi va uzoq muddatli moliyalashtirish instrumentlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi tizimli muammolar sifatida dolzarbligicha qolmoqda.³

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF–5992-sonli⁴ Farmoni bilan tasdiqlangan Bank tizimini isloh qilish strategiyasida tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi rolini kuchaytirish, kredit portfeli sifatini oshirish hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan.

Mazkur maqolaning maqsadi – "O'zsanoatqurilishbank" ATB misolida tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini 2021–2025-yillar kesimida empirik tahlil qilish va ularni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyekti – O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari, xususan, "O'zsanoatqurilishbank" ATB; predmeti – kreditlash mexanizmlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalari va ularni takomillashtirish yo'nalishlaridagi iqtisodiy munosabatlar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank kreditlash nazariyasida G.G. Korobova kredit operatsiyalarini banklar uchun asosiy daromad manbai sifatida belgilab, moliyaviy operatsiyalar umumiy natijalarining uchdan ikki qismini sof foiz daromadlari tashkil etishini asoslab bergan.⁵ O.I. Lavrushin esa bankni iqtisodiy agentlarning bo'sh mablag'larini to'plovchi va ularni foyda olish maqsadida joylashtiruvchi moliyaviy vositachi sifatida ta'riflaydi.⁶

R. Levine moliya tizimi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni empirik jihatdan tasdiqlab, kredit resurslarining real sektorga samarali yo'naltirilishi mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatishini isbotlagan.⁷ V. Acharya va N. Mora bank kapitali yetarilgini ta'minlash hamda likvidlik risklarini boshqarishning kredit iqlimi barqarorligini ta'minlashdagi hal qiluvchi ahamiyatini ko'rsatgan.⁸

Mahalliy iqtisodchilardan Sh.Z. Abdullayeva O'zbekiston tijorat banklarining kreditlash tizimini takomillashtirish va kredit portfelini diversifikatsiya qilish muammolarini kompleks tarzda tadqiq qilgan.⁹ N.X. Jumayev esa tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning huquqiy-me'yoriy bazasini tizimlashtirgan.¹⁰

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi: tizimli tahlil va sintez, iqtisodiy-statistik hamda dinamik tahlil, korrelyatsion tahlil, xalqaro tajribani qiyosiy baholash, ekspert baholash usuli, mantiqiy induksiya va deduksiya. Empirik ma'lumotlar bazasini O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021–2025-yillardagi hisobotlari, "O'zsanoatqurilishbank" ATBning moliyaviy hisobotlari, shuningdek, YETR banki, XVF va XMKnig rasmiiy ma'lumotlari tashkil etadi.

1 IMF World Economic Outlook. – Washington D.C.: IMF, 2025. – P. 14.

2 O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari: yillik to'plam 2024. – T.: O'zbekiston, 2024. – B. 48.

3 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2024-yilgi yillik hisobot. – T.: O'zR MB, 2025. – B. 45.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF–5992-sonli Farmoni: <https://lex.uz/docs/4811025>

5 Korobova G.G. Банковское дело: учебник. – M.: Экономист, 2015. – S. 320.

6 Lavrushin O.I. Банковское дело: учебник. – 12-e izd. – M.: KnoRus, 2016. – S. 184.

7 Levine R. Finance and Growth: Theory and Evidence // Handbook of Economic Growth. – Amsterdam: Elsevier, 2005. – Vol. 1. – P. 865–934.

8 Acharya V., Mora N. A Crisis of Banks as Liquidity Providers // Journal of Finance. – 2015. – Vol. 70. – No. 1. – P. 1–43.

9 Abdullayeva Sh.Z. O'zbekistonda tijorat banklari kreditlash tizimini takomillashtirish. – T.: Fan, 2019. – B. 112.

10 Jumayev N.X. Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari. – T.: DDIU, 2020. – B. 87.




TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston tijorat banklari tizimida kreditlash faoliyatining 2021–2025-yillardagi asosiy ko'rsatkichlari 1-jadvalda aks ettirilgan. Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, kredit qo'yilmalari hajmi 2021-yildagi 190,8 trln so'mdan 2025-yilgi prognoz bo'yicha 425,6 trln so'mga, ya'ni 2,2 martaga oshishi kutilmoqda; kredit/YaIM nisbati esa 44,4 foizdan 57,1 foizga ko'tarilmoqda(1-jadval).¹¹

1-jadval. Tijorat banklarining kreditlash faoliyati asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2021–2025-yillar)¹²

Yil	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ko'rsatkichlari		Bank kreditlash ko'rsatkichlari		
	YaIMdagi ulushi, %	Sanoatdagi ulushi, %	Kredit qo'yilmalari, trln so'm	Kredit/ YaIM, %	O'rtacha foiz stavkasi, %
2021	54.9	47.6	190.8	44.4	21.4
2022	56.3	49.1	238.6	47.2	19.8
2023	57.8	51.4	298.4	51.8	18.3
2024	59.1	53.2	361.2	54.3	17.1
2025*	60.5	54.8	425.6	57.1	15.9

1-jadval tahlili quyidagi muhim tendensiyalarni namoyon qiladi. Birinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 2021-yildagi 54,9 foizdan barqaror ravishda o'sib, 2025-yilda 60,5 foizga yetishi kutilmoqda. Ikkinchidan, o'rtacha foiz stavkasi 2021-yildagi 21,4 foizdan 2025-yilda 15,9 foizga pasaymoqda. Bu kredit resurslarining tadbirkorlar uchun tobora qulaylashib borayotganligini ko'rsatadi¹³. Uchinchidan, kredit qo'yilmalarining mutlaq o'sishi ijobiy bo'lsa-da, garov ta'minoti muammosi va uzoq muddatli moliyalashtirish instrumentlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi tizimli to'siqlar sifatida saqlanib qolmoqda(1-rasm).

1-rasm. Tijorat banklarining kredit qo'yilmalari va YaIMdagi ulushi dinamikasi (2021–2025-yillar)¹⁴

11 O'zsanoatqurilishbank ATBning 2024-yilgi konsolidatsiyalangan moliyaviy hisoboti. – T.: O'zsanoatqurilishbank ATB, 2025. – B. 23.

12 O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Markaziy bank hisobotlari va "O'zsanoatqurilishbank" ATB ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. 2025-yil – prognoz.

13 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2024-yilgi yillik hisobot. – T.: O'zR MB, 2025. – B. 51.

14 O'zR Statistika agentligi, Markaziy bank hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. 2025-yil – prognoz.



1-rasmdan ko'rinib turibdiki, kredit qo'yilmalari hajmi tahlil qilingan butun davr mobaynida barqaror o'sish tendensiyasini saqlab kelmoqda. YaIMdagi ulush chiziqli o'sish dinamikasini ko'rsatib, 2025-yilgacha 57,1 foizga yetishi prognoz qilinmoqda. "O'z sanoat qurilish bank" ATB ma'lumotlariga ko'ra, bank 2021–2024-yillarda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni sezilarli darajada kengaytirib, 58 mamlakatning 338 ta xorijiy banki bilan vositachilik munosabatlarini o'rnatgan.

Tadqiqot natijalari asosida 2021–2025-yillar kesimida aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan to'rtta strategik yo'nalish ishlab chiqildi.

Birinchi yo'nalish – yashil moliyalashtirishni kengaytirish. YETR banki, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda XMKNing maqbul foiz stavkalaridagi kredit liniyalari asosida bank kredit portfelida yashil kreditlar ulushini oshirish taklif etiladi.¹⁵ Yashil kreditlar bo'yicha milliy valyutadagi foiz stavkasini 7 foizdan 5 foizga, xorijiy valyutadagilarini esa 4 foizdan 3 foizga pasaytirish orqali ekologik loyihalar uchun moliyalashtirishni yanada jozibador qilish maqsadga muvofiq. 2021–2024-yillardagi tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, foiz stavkalarining pasayishi bilan kredit talabi 15–20 foizga oshadi.

Ikkinchi yo'nalish – kafillik berish mexanizmini kuchaytirish. Hozirda Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi kreditlarning 50 foizigacha kafillik bermoqda.¹⁶ 2021–2024-yillardagi empirik tahlil shuni ko'rsatdiki, kafillik olgan tadbirkorlik subyektlarida kreditlarning qaytarilmaslik darajasi 2,1 foiz bandga past bo'lgan. Shu asosda kichik sanoat korxonalarini uchun kafillik hajmini 75 foizgacha oshirish taklif etiladi. Bu Germaniyaning KfW, Janubiy Koreyaning KODIT va Yaponiyaning SMRJ tajribalari bilan uyg'unlashadi.¹⁷

Uchinchi yo'nalish – "Green SME Loan" kredit mahsulotini joriy etish. Ushbu innovatsion mahsulot yashil loyihalarni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlariga qulay shartlarda kredit berishni nazarda tutadi: 12 oygacha imtiyozli davr, asosiy qarz bo'yicha to'lovlarni keyinga qoldirish imkoniyati, tranch asosida kredit berish mexanizmi hamda qayta tiklanuvchi energiya, energiya tejovchi texnologiyalar va ekologik toza ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirish. 2022–2024-yillardagi pilot loyihalar tajribasi ushbu mahsulotning amaliy samaradorligini tasdiqlagan.

To'rtinchi yo'nalish – Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi (EIRBT)ni joriy etish. Xalqaro moliya institutlari mablag'larining o'z vaqtida va samarali o'zlashtirilishini ta'minlash, ekologik va ijtimoiy muammolar tufayli loyihalarning amalga oshirilmay qolish xavfini minimallashtirishga qaratilgan EIRBT tizimini tadbirkorlik sektori uchun moslashtirish taklif etiladi. 2021–2024-yillardagi tahlil shuni ko'rsatdiki, EIRBT talablariga rioya qilingan loyihalarda muammolar darajasi 34 foizga past bo'lgan.

Ishlab chiqilgan takliflarning asosligi xalqaro tajriba va 2021–2025-yillardagi O'zbekiston ma'lumotlari bilan tasdiqlandi. B. Markus tadqiqotlari ko'rsatishicha, rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlarida yashil kreditlash dasturlarini joriy etish bank kredit portfeli sifatini 12–18 foizga yaxshilash va muammoli kreditlar ulushini 2–3 foiz bandga kamaytirish imkonini beradi.¹⁸

XMKNing so'nggi hisobotiga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishdagi bo'shliq 5,2 trln dollarni tashkil etmoqda.¹⁹ O'zbekiston uchun ushbu bo'shliqni qisman to'ldirish imkoniyatiga ega bo'lgan asosiy kanal xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalaridan foydalanish va kafillik tizimini kuchaytirish hisoblanadi. 2021–2024-yillardagi korrelyatsion tahlil foiz stavkasi va kredit talabi o'rtasida $r = -0,87$ darajasidagi kuchli teskari bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Bu esa foiz stavkalarini pasaytirish siyosatining kredit hajmlarini oshirishdagi hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning cheklovlari quyidagilardan iborat: ma'lumotlar bazasining asosan bitta bank faoliyatiga tayanishi; 2025-yil uchun prognoz ko'rsatkichlarining ekstrapolyatsiya usuli asosida hisoblanganligi; tashqi makroiqtisodiy shoklar ta'sirini to'liq inobatga olishning murakkabligi. Kelgusidagi tadqiqotlarda O'zbekistondagi barcha tijorat banklarini qamrab oluvchi panel ma'lumotlarga asoslangan GMM va instrumental o'zgaruvchilar metodologiyasini qo'llash tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. 2021–2025-yillar kesimida O'zbekiston tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlariga kredit qo'yilmalari 190,8 trln so'mdan (2021-yil) prognoz bo'yicha 425,6 trln so'mga (2025-yil), ya'ni 2,2 martaga oshib, kredit/YaIM nisbati 44,4 foizdan 57,1 foizga ko'tarildi. O'rtacha foiz stavkasi 21,4 foizdan 15,9 foizga pasaydi. Biroq

15 EBRD Green Economy Transition (GET) Approach 2021–2025. – London: EBRD, 2023. – P. 7.

16 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-martdagi «Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-150-sonli Farmoni

17 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-yanvardagi «Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 18-sonli qarori

18 Marcus B. Bank Capital and Risk-Taking in Emerging Markets // Journal of Banking & Finance. – 2018. – Vol. 88. – P. 135–153.

19 IFC. MSME Finance Gap Report 2022. – Washington D.C.: IFC, 2022. – P. 34.



garov ta'minotining yetishmasligi va uzoq muddatli moliyalashtirish instrumentlarining rivojlanmaganligi tizimli muammo bo'lib qolmoqda.

2. Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan kichik sanoat korxonalarini kreditlarining 75 foizigacha kafillik berish mexanizmini kengaytirish bank kredit risklarini sezilarli darajada pasaytiradi. Empirik tahlil shuni ko'rsatdiki, kafillik olgan subyektlarda kreditlarning qaytarilmaslik darajasi 2,1 foiz bandga past bo'lgan.

3. "Green SME Loan" kredit mahsulotini joriy etish va EIRBT tizimini tadbirkorlik sektori uchun moslashtirilgan shaklda qo'llash xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni samarali rivojlantiradi, jalb qilingan mablag'larning o'z vaqtida o'zlashtirilish darajasini oshiradi hamda loyihalarning amalga oshirilmay qolish xavfini 34 foizga kamaytiradi.

Ushbu taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish O'zbekiston tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishga, bank aktivlari daromadlilikini yaxshilashga hamda iqtisodiyotning real sektori bilan barqaror hamkorlikni mustahkamlashga muhim hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. IMF World Economic Outlook. – Washington D.C.: International Monetary Fund, 2025. – 208 p.
2. Лаврушин О.И. Банковское дело: учебник. – 12-е изд., перераб. и доп. – М.: КноРус, 2016. – 800 с.
3. Коробова Г.Г. Банковское дело: учебник. – М.: Экономист, 2015. – 766 с.
4. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari: yillik to'plam 2024. – T.: O'zbekiston, 2024. – 320 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2024-yilgi yillik hisobot. – T.: O'zR MB, 2025. – 96 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi «2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi PF-5992-sonli Farmoni: <https://lex.uz/en/docs/-4811025>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
8. "O'zsanoatqurilishbank" ATB. 2024-yilgi konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot. – T.: "O'zsanoatqurilishbank" ATB, 2025. – 112 b.
9. Levine R. Finance and Growth: Theory and Evidence // Handbook of Economic Growth / Ed. by P. Aghion, S. Durlauf. – Amsterdam: Elsevier, 2005. – Vol. 1. – P. 865–934.
10. Acharya V., Mora N. A Crisis of Banks as Liquidity Providers // Journal of Finance. – 2015. – Vol. 70. – No. 1. – P. 1–43.
11. Marcus B. Bank Capital and Risk-Taking in Emerging Markets // Journal of Banking & Finance. – 2018. – Vol. 88. – P. 135–153.
12. EBRD Green Economy Transition (GET) Approach 2021–2025. – London: EBRD, 2023. – 52 p.
13. IFC. MSME Finance Gap: Assessment of the Shortfalls and Opportunities in Financing Micro, Small, and Medium Enterprises. – Washington D.C.: IFC, 2022. – 84 p.
14. Abdullayeva Sh.Z. O'zbekistonda tijorat banklari kreditlash tizimini takomillashtirish. – T.: Fan, 2019. – 198 b.
15. Jumayev N.X. Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari. – T.: TDIU, 2020. – 174 b.
16. Шумпетер Й.А. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1982. – 455 с.
17. Drucker P. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. – New York: Harper & Row, 1985. – 277 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>